

## **SHAXSNING JAMIYATGA MOSLASHUVI**

***Jovliyeva Ruxshona Sherzod qizi -***

*Nizomiy nomidagi TDPU Maktabgacha ta'lim pedagogikasi va psixologiyasi*

*yo'nalishi 2-kurs talabasi*

*email: [jovliyevaruxshona@gmail.com](mailto:jovliyevaruxshona@gmail.com)*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada shaxsning jamiyatga qanday moslashishi, jamiyatda o'zini qanday tutishi haqida ma'lumot berilgan.

**Kalit so'zlar:** shaxs, jamiyat, individ, moslashuv, ijtimoiylashuv, megaomil, makroomil.

Shaxs — alohida individ, mohiyatan yaxlit ijtimoiy-axloqiy olam. U o'zida inson mohiyatini, uning mavjudot sifatidagi qadriyatini mujassam etadi. Shaxs ijtimoiy-gumanitar fanlarda o'z yo'nalishi, tadqiqot obyekti va maqsadi nuqtai nazaridan turlicha talqin etiladi. Mehnat qila olish ko'nikmasining mavjudligi, insonlar bilan birgalikda faoliyat munosabatni amalga oshirayotgan kishi asta - sekin shaxsga aylanib boradi. Bevosita moddiy dunyoni, jamiyatni va xususan o'zini o'rganish va faol tarzda qayta o'zgartirish jarayonining sub'ektga aylanmoqda. Shu o'rinda haqli bir savol tug'iladi, ya'ni shaxs, individ, individuallik tushunchasining o'zaro bog'liqlik jihatlari mavjudmi? Buning uchun mazkur tushunchalarning mazmunini tahlil qilish samarali hisoblanadi. Shuning uchun ham dastlab individ tushunchasining mazmuniga to'xtalish lozim. A.V.Petrovskiy tahriri ostida chiqqan "Umumiy psixologiya" darsligida "Individ" tushunchasida kishining nasl-nasabi ham mujassamlashgandir. Bolaning shaxs sifatida jamiyatga qo'shilishi, ya'ni ijtimoiylashuvning yetakchi vositalari sifatida quyidagilarni ko'rsatish mumkin:

Ota-on, o'z tengdoshlari va pedagogik-musllimlar bilan o'zaro muloqot, faoliyat turlari(o'yin va o'quv faoliyati, ijodiy faoliyat, sport faoliyati)ni egallash. Shaxsning ijtimoiylashuvi bolalar, o'smirlar, o'spirinlarning ruhiy rivojlanishi va shaxs sifatida voyaga yetishiga ta'sir ko'rsatuvchi ko'p sonli shart-sharoitlar

zamirida yuzaga keladi.

Ijtimoiylashuv jarayoniga tashqi va ichki omillar:

Tashqi omillar:

- megaomillar(mega-ulkan) - koinot, butun yer sharidagi jarayonlar.
- makroomillar(makro-katta) - davlat va jamiyatdagi demografik, ijtimoiy-siyosiy, madaniy va ekologik omillar.
- mezoomillar(mezo-o'rta) – muayyan hudud va yashash joyidagi ommaviy aloqa tarmoqlari, muayyan guruhlarning ijtimoiylashish shart-sharoitlari.
- mikroomillar(mikro-kichik) – alohida shaxslarga ta'sir qiluvchi omillar tizimi(oila, mahalla maskanlari, tengdoshlar guruhi, ta`lim va tarbiya muassasalari, davlat va nodavlat tashkilotlari).

Fransuz sotsiologi Emil Dyurkgeym jamiyatda shaxsning moslashuvi ijtimoiy institutlar orqali amalga oshishini ta'kidlagan. Unga ko'ra, shaxs jamiyatning me'yor va qadriyatlarini o'rganib, ularni qabul qilishi zarur. Ijtimoiy institutlar (oila, muktab, din) insonning ijtimoiy hayotga tayyorlanishida muhim rol o'ynaydi.

Shaxsning jamiyatga moslashuvi bu insonning ijtimoiy muhitga uyg'unlashuvi, o'z o'rnini topishi va jamiyat bilan hamohang yashash jarayonidir. Bu jarayon insonning bilim, tajriba va ijtimoiy muloqot orqali rivojlanishini ta'minlaydi. Muvaffaqiyatli moslashuv shaxsga o'z qobiliyatlarini ro'yobga chiqarish, boshqalar bilan samarali muloqot qilish va jamiyat taraqqiyotiga hissa qo'shish imkonini beradi. Shu bois, har bir inson o'ziga xosligini saqlagan holda, jamiyat talablariga moslashishi muhimdir.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati**

1. N. ISLOMOVA, D. ANDULLAYEVA - Ijtimoiy psixologiya o'quv qo'llanma.
2. Akramova, D. (2022). Bo'lajak pedagog-psixologlarning maktabgacha ta'lim tizimidagi faoliyati. *Science and innovation*, 1(B8), 322-326.
3. Akramova, D. (2022). Oliy ta'lim muassalari talabalarida pedagogik-psixologik moslashuvchanlikni mazmun mohiyati. *Science and innovation*, 1(B8), 2150-2153.
4. Акрамова, Д. Э. (2023). СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ТЕХНОЛОГИЙ

РАЗВИТИЯ МЕХАНИЗМОВ ПЕДАГОГИЧЕСКОЙ И  
ПСИХОЛОГИЧЕСКОЙ ГИБКОСТИ У СТУДЕНТОВ КАК ПРОБЛЕМА  
СОВРЕМЕННОСТИ. *ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ*, 13(8), 19-23.

5. Akramova, D. E. qizi Suvonqulova, MD (2023, January). RIVOJLANTIRUVCHI MARKAZLARDA BOLALARNI MAKTABGA TAYYORLASH VA MILLIY QADRIYATLAR NAMUNALARIDAN FOYDALANISHNING AFZALLIGI. In *INTERNATIONAL CONFERENCES* (Vol. 1, No. 2, pp. 393-396).
6. Akramova, D. E. qizi Azimova, XD (2023, January). MAKTABGACHA TA'LIM YO 'NALISHI TALABALARIDA IJODIY TAFAKKURNI RIVOJLANTIRISH METODIKASI. In *INTERNATIONAL CONFERENCES* (Vol. 1, No. 2, pp. 382-385).
7. Ergashevna, A. D. (2025). THEORETICAL FOUNDATIONS FOR THE DEVELOPMENT OF SOCIALIZATION IN SCHOOLCHILDREN OF THE PREPARATORY GROUP. *SHOKH LIBRARY*.
8. Akramova, D. (2022). Bo'lajak pedagog-psixologlarning maktabgacha ta'lif tizimidagi faoliyati. *Science and innovation*, 1(B8), 322-326.
9. Ibraimov, X., & Akramova, D. (2023). DIDACTIC CHARACTERISTICS OF COMMUNICATIVE TRAINING IN ENGLISH LANGUAGE TEACHING. *Science and innovation*, 2(B11), 357-361.
10. Maqsudova M. Muloqot psixologiyasi. T.2006.
11. Shoumarov G'.B. "Oila psixologiyasi". Toshkent. "Sharq".2008.